

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH  
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJALARINI  
BERUVCHI PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MAMEDOVA FERUZA FAXRIDDINOVNA**

**G‘O‘ZANING RANGLI TOLALI NAMUNALARIDAN FOYDALANGAN  
HOLDA, TOLA SIFATI YUQORI BO‘LGAN SELEKSION ASHYO  
YARATISH**

**06.01.05-Seleksiya va urug‘chilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI BO‘YICHA FALSAFA FANLARI DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT-2024**

**Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Mamedova Feruza Faxriddinovna**

G‘o‘zaning rangli tolali namunalaridan foydalangan holda, tola sifati  
yuqori bo‘lgan seleksion ashyo yaratish.....3

**Мамедова Феруза Фахриддиновна**

Создание селекционного материала с высоким качеством волокна  
на основе образцов хлопчатника с цветным волокном.....21

**Mamedova Feruza Faxriddinovna**

Creation of breeding material with high fiber quality based on naturally  
colored cotton samples.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....43

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH  
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJALARINI  
BERUVCHI PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**MAMEDOVA FERUZA FAXRIDDINOVNA**

**G‘O‘ZANING RANGLI TOLALI NAMUNALARIDAN FOYDALANGAN  
HOLDA, TOLA SIFATI YUQORI BO‘LGAN SELEKSION ASHYO  
YARATISH**

**06.01.05-Seleksiya va urug‘chilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT-2024**

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Qx836 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.psuyaiti.uz](http://www.psuyaiti.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Kurbonov Abrorjon Yorqinovich**

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Babayev Yashin Amanovich**

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Miraxmedov Mirvaxob Sodiqovich**

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 111218, Toshkent, Universitet ko'chasi 1-uy, Tel: (+99871) 150-62-78; faks: (+99871) 150-61-37; e-mail: [paxtauz@mail.ru](mailto:paxtauz@mail.ru); Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti bosh binosi, 3-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalar ilmiy tadqiqot institutining kutubxonasida tanishish mumkin. (№1311-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111218, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot institutining kutubxonasi. Tel: (+99897) 746-47-60.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.E.Ravshanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
q.x.f.d., professor

**M.B.Xalikova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

**A.B.Amanturdiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., katta  
ilmiy xodim

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo bo'yicha har yili 32-34 mln gektarga chigit ekilib, ushbu maydonlarda 12-14 mln t, ayrim yillarda 17-20 mln t tola yetishtiriladi. Jumladan, Hindistonda 13,5 mln ga (2022 yilda 13,0 mln ga), AQSh da 4,6 mln ga (2022 yilda 3,2 mln ga), Xitoyda 3,4 mln ga (2022 yilda 3,03 mln ga), Pokistonda 2,4 mln ga (2022 yilda 2,13 mln ga), Braziliyada 1,6 mln ga (2022 yilda 1,64 mln ga), O'zbekistonda 1,02 mln ga (2022 yilda 1,03 mln ga) tashkil etgan<sup>1</sup>. So'nggi yillarda, dunyoda ekologik toza va organik to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ushbu istiqbolli yondashuvlardan biri bu tabiiy rangli paxta tolasidan foydalanish va uni ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'lib, «bugungi kunda Xitoyda 46700 ga, AQSh da 2500 ga, Avstraliyada 2000 ga, Isroilda 500 ga, Hindistonda 1000 ga, Peruda 200 ga maydonda rangli tolali g'oz navlari yetishtirilib jami 146,67 ming tonna tabiiy rangli tolali paxta xom-ashyosi yetishtirilmoqda»<sup>2</sup>. Butun dunyo ekologik sof organik to'qimachilik mahsulotlari tomon harakatlanar ekan, tabiiy rangdagi paxta tolasini to'qimachilik sanoatida navbatdagi innovatsion yutuqqa aylantirish va tola sifati yuqori bo'lgan yangi rangli tolali g'oz navlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyoda Xitoy, AQSh, Hindiston, Turkiya va boshqa davlatlar olimlari tomonidan molekulyar genetik, fiziologiya va gen muhandisligi asosida bir qancha qo'ng'ir, qizg'ish, novvot rang, sarg'ish, kulrang, yashil rangli g'oz navlari yaratilgan. Shuningdek, Xitoylik olimlar tomonidan gen muhandisligi asosida g'oz tolasini betalin bilan to'yintirish orqali pushti rangli g'oz genotipi olingan. Markerlarga asoslangan seleksiya asosida tola sifati yuqori, tuproq sho'rlanishiga, qurg'oqchilikka va kasalliklarga bardoshli turli rangli tolali g'oz navlari yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda.

Respublikada rangli tolali g'oz navlar seleksiyasi XX asrning 50-yillarida boshlangan bo'lib, shu davrgacha ularning genetik asoslari va fiziologiyasi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Seleksiya va genetik qonuniyatlar asosida qo'ng'ir, qizg'ish, sarg'ish, yashil, kulrang va malla rangdagi turli genotiplar yaratilgan. Lekin ularning tolasining kaltaligi, chiqimining pastligi va pishiqligidagi muammolar tufayli ishlab chiqarishga joriy etilmagan. Rangli paxta tolasini sifati yuqori bo'lishi, uning hujayradagi turli xil biokimyoviy va mineral komponentlar ta'sirida namoyon bo'lgan murakkab xossalari tufayli hamon noaniqligicha qolmoqda. Bugungi kunda seleksioner olimlar zamonaviy uslublar yordamida yuqori sifatlilik, rangli tolali g'oz navlarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»<sup>3</sup> gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni<sup>4</sup>, 2020 yil 25

<sup>1</sup> ICAC Data book 2022, Washington, December 2022

<sup>2</sup> Jyoti Chhabra and et al. Naturally colored cotton. Asian Textile Journal. March 2015.P.25

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi 395-II sonli qonuni. 29-avgust, 2002 y.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 7-fevral, 2017 y.

noyabrdagi PQ-4899-son «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi <sup>5</sup> qarori hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'rta Osiyoda birinchi marta rangli tolali g'o'zalar bilan B.P. Straumal, I.K. Maksimenko, V.S. Fedorov, va N.M. Romanov (1938, 1948) lar seleksiya ishlarini olib borgan. B.P. Straumal (1941, 1948) amaliy seleksiya yo'li bilan tabiiy qo'ng'ir - jigarrang tolali paxtani yaratgan va uning xususiyatlarini tavsiflab bergan. I.K. Maksimenko (1945, 1946) turli xil tola rangiga ega, asosan yashil rangdagi paxtaning yangi duragay shakllarini yaratish bo'yicha ish natijalarini bergan. V.S. Fedorov va N.M. Romanov (1941) o'z asarlarida tabiiy rangli tolali paxtalarni yaratish va jahon amaliyoti holatini tavsiflaydi. Ular mahalliy seleksiyaning rangli tolalarini texnologik va koloristik tadqiqotlar ma'lumotlarini keltirib, tabiiy rangdagi paxtani sanoatga joriy etish istiqbollarini asoslaydilar.

Hozirgi kunda dunyoda ishlab-chiqarish va to'qimachilik sanoati talabidagi belgilar majmuasiga ega rangli tolali g'o'za navlari yaratishda qator izlanishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Xitoy fanlar akademiyasi olimlari rangli tolali g'o'za namunalarini tola sifati va miqdori yuqori, tezpishar navlarga introgressiya qilish orqali yangi tizmalar olingan va markerlarga asoslangan seleksiya texnologiyalaridan foydalanib, talab darajasidagi tizmalar tanlab olingan; Sen-He Qiana, Liang Hong, Anhui tomonidan rangli tolali g'o'zalarning biokimyoviy tarkibini o'rganish orqali uning tabiiy rangini saqlanib qolinishini o'rgangan. Murthy tomonidan tola rangini boshqaruvchi genlar ko'p xollarda pleotropik, ya'ni bir nechta belgini boshqarishi o'rganilgan.

Silow, Endrizzi va Kohellarning ta'kidlashicha, tola rangi olti lokusda joylashgan bir guruh genlar tomonidan boshqariladi, Lc1, Lc2, Lc3, Lc4, Lc5 va Lc6. Bundan tashqari paxta tolasining rangli bo'lishi oq rang ustidan dominant hisoblanadi. Ammo, Richmond tomonidan esa yashil va qo'ng'ir rangli tolada, har ikkala rang yagona to'liq bo'lmagan dominant gen tomonidan boshqarilishini ta'kidlagan. Bu ehtimol, ashyolarning turli genetik kelib chiqishi natijasi bo'lishi mumkin.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liq bo'lib, № QX-A-2019-15 «G'o'zaning fuzarioz va vertitsillyoz vilt kasalliklariga chidamli yangi navlarini yaratish hamda ularni parvarishlashning yuqori samarali agrotexnologiyalarini

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4899 – sonli “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. 25 noyabr 2020 y.

ishlab chiqish» (2019-2022 yy.) amaliy loyihasi va «*Gossypium* L. turkumining dunyoviy bioxilma – xilligi molekulyar filogenetikasini va genetik potensialini o‘rganish, tashqi muhitning biotik va abiotik ta’sirlariga bardoshli donorlar panelini yaratish» laboratoriya dasturi (2021-2023 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** g‘o‘zaning turli rangli tolali kolleksion namunalardan foydalangan holda, analitik va sintetik seleksiya usullari asosida tola sifati va miqdor ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan *G.hirsutum* L. turiga mansub rangli tolali duragay va seleksion ashyolarni yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turli rangli tolali g‘o‘za namunalarini duragaylashda ishtirok etgan boshlang‘ich ashyolarini tavsiflash;

boshlang‘ich ashyolarning tuproq sho‘rlanishiga va fuzarioz vilt kasalligiga bardoshlilikini laboratoriya sharoitida tahlil qilish;

ota-ona shakllari va F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragaylarida belgilarning dominantlik darajasini (hp), standart farqlanish kattaligini va variatsiya koeffitsientini aniqlash;

o‘zgaruvchanlik xususiyati, ertapisharlikning mahsuldorlik belgisi bilan bog‘liqligi, ota-ona shakllarining kelib chiqishiga bog‘liq holda tolaning sifati va miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash;

DNK markerlari asosida seleksiya jihatdan muhim bo‘lgan tizmalarning tola uzunligi, tola chiqimi, mikroneyr ko‘rsatkichi, mahsuldorlik, tezpisharlik hamda vertitsillyoz va fuzarioz vilt kasalliklariga bardoshlilik ko‘rsatkichlarini baholash;

analitik seleksiya usulida tezpishar, tola sifati va chiqimi yuqori bo‘lgan seleksion ashyolarni yaratish;

amaliy seleksiya va ishlab chiqarish uchun rangli tolali g‘o‘zaning yangi qimmatli seleksion ashyolarini yaratish;

rangli va oq tolali g‘o‘za namunalarini chigit tarkibini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida *G.hirsutum* L. turiga mansub g‘o‘zaning rangli tolali 4083 (qo‘ng‘ir), 4017 (qo‘ng‘ir), 4099 (och jigarrang), 4092 (och jigarrang), 4068 (yashil), 017597 (qo‘ng‘ir), 02757. *ssp.mexicanum* (och jigarrang), 07223. Fibre Vente (och jigarrang), Turkiya braun (qo‘ng‘ir), Turkiya braun (och jigarrang), Turkiya braun (to‘q jigarrang), Ankansas Greenlint (yashil), 101105 (to‘q jigarrang) g‘o‘za namunalari va oq tolali C-6570, C- 6577, C - 6580, Sulton, Namangan – 77, C-5706, C-5707 va Guliston kabi mahalliy g‘o‘za navlari hamda andoza nav sifatida C-6524, indikator nav sifatida Buxoro – 102 navlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning predmeti** g‘o‘zaning qimmatli belgi va xususiyatlarga ega oilalar va tizmalar yaratishda markerlarga asoslangan seleksiya usullari, ota-ona shakllari va duragay belgilarining irsiylanishi, o‘zgaruvchanligi, ayrim xo‘jalik belgilari orasidagi korrelyativ bog‘liqliklarni aniqlash, fitopatologik usullar yordamida fuzarioz vilt kasalligiga bardoshlilikini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy izlanishlar sobiq O‘zPITIda qabul qilingan “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (2007) bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, analitik va sintetik seleksiya usullaridan foydalanib, tanlab olingan rangli tolali g‘o‘za tizmalarida fenologik kuzatuvlar, viltga bardoshlilik, tanlov ishlari, matematik, variatsion statistika, korrelyativ tahlillar hamda boshqa raqamli ko‘rsatkichlar B.A.Dospexov (1985) uslubi bo‘yicha ishlovdan o‘tkazilgan va molekulyar genetik

usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor turli rangli tolali va qimmatli-xo'jalik belgilari majmuiga ega bo'lgan seleksion ashyolar yaratish uchun *G.hirsutum* L. turiga mansub g'o'za namunalarining biotik omillarga bardoshlilikiga baholangan;

turli rangli tolali g'o'za namunalarini *Fusarium oxysporum vasenfectum* zamburug'i izolyatlari bilan inokulyatsiya qilish orqali bardoshli bo'lgan boshlang'ich ashyolar ajratib olingan va seleksiyaga jalb qilingan;

DNK markerlar asosida rangli tolali g'o'za namunalari orasidan genomida tola sifat belgilari bilan bog'liq allellari mavjud namunalar tanlab olingan;

laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijasida rangli tolali namunalarni tuproq sho'rlanishiga bardoshlilik darajasi yuqoriligi isbotlangan;

rangli tolali g'o'za namunalarini o'zaro chatishtirish asosida olingan duragaylarda tezpisharlik, tola sifati va rangining o'zgaruvchanligi, irsiylanishi va nasldan-naslga berilishining genetik qonuniyatlari aniqlangan;

ayrim rangli tolali F<sub>1</sub> duragaylarida bosh poya balandligi, birinchi hosil shoxining joylashishi, tezpisharlik, mahsuldorlik, tola uzunligi, mikroneyr belgilarining ustunlik va o'ta ustunlik holatida irsiylanishi isbotlangan;

rangli va oq tolali g'o'za namunalarida chigit tarkibidagi oqsillar miqdorining ortishi va tola rangining to'q bo'lishi o'zaro ijobiy bog'liq ekanligi aniqlangan;

SSR molekulyar markerlar asosida qimmatli xo'jalik belgilarini nazorat qiluvchi allellari mavjud namunalarni tanlash natijasida tolasini qo'ng'ir rangli T-177 va yashil rangli T-212 tizmalari yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oddiy duragaylash orqali rangli tolali g'o'zaning tezpisharlik, sho'rga va kasallikka bardoshli bo'lgan F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragaylari olingan va seleksiyaning keyingi bosqichlariga tavsiya etilgan;

tola sifati, tezpishar, kasallik belgilariga genetik bog'langan QTL lokuslarini DNK markerlari yordamida tanlash orqali tezpisharligi 115-117 kun, bitta ko'sakdagi paxta xom ashyo vazni o'rtacha 6,5-6,6 g., tola chiqimi 37,5-38,0%, mikroneyr ko'rsatkichi 3,8-4,0, tola uzunligi 32,4-33,3 mm, tola uzilish kuchi 27,7 gr/teks ni tashkil etgan yangi qo'ng'ir tolali T-177 va tezpisharligi 120-122 kun, bir ko'sakdagi paxta xom ashyo vazni o'rtacha 7,0-7,5 g., tola chiqimi 38,5-39,1%, mikroneyr ko'rsatkichi 4,0, tola uzunligi 1,15-1,16 dyuym, tola uzilish kuchi 31,5 gr/teks ni tashkil etgan yashil tolali T-212 g'o'za tizmalari yaratilgan;

qo'ng'ir tolali T-177 va yashil tolali T-212 g'o'za tizmalarini birlamchi urug'chilik ko'chatzorlari tashkil etilib, yuqori sifatli original urug'lik ashyo tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarning molekulyar biologiya, va biotexnologiyaning zamonaviy usul va yondashuvlari yordamida tasdiqlanganligi, ma'lumotlarning variatsiyalar tahlili va boshqa statistik usullardan foydalanib, tahlil qilinganligi va har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan tashkil etilgan maxsus aprotatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi, olingan natijalarni nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, olingan

natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati *G.hirsutum* L turiga mansub rangli tolali kolleksiya namunalarini analitik seleksiya usuli yordamida genomida tola sifat belgilari bilan bog‘liq allellari mavjud namunalar DNK markerlar asosida yakka tanlash orqali, tezpishar, hosildor, tola chiqimi yuqori hamda tola sifati IV-tipga mos bo‘lgan rangli tolali yangi tizmalar hamda duragaylar tanlangan, shuningdek, *In silico* (virtual) PZR tahlili natijasida tola sifatiga birikkan BNL1604 markeri hududida topilgan taxminiy gen/oqsillari o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati rangli tolali kolleksiya namunalarini analitik seleksiya usuli yordamida DNK markerlardan foydalanib, yakka tanlash orqali, xo‘jalikda qimmatli bo‘lgan belgilarning ijobiy ko‘rsatkichlariga ega, ya’ni tezpisharligi 115-117 kun, bitta ko‘sakdagi paxta xom ashyo vazni o‘rtacha 6,5-6,6 g., tola chiqimi 37,5-38,0%, mikroneyr ko‘rsatkichi 3,8-4,0, tola uzunligi 32,4-33,3 mm, tola uzilish kuchi 27,7 gr/teks ni tashkil etgan yangi qo‘ng‘ir tolali T-177 va tezpisharligi 120-122 kun, bir ko‘sakdagi paxta xom ashyo vazni o‘rtacha 7,0-7,5 g., tola chiqimi 38,5-39,1%, mikroneyr ko‘rsatkichi 4,0, tola uzunligi 1,15-1,16 dyuym, tola uzilish kuchi 31,5 gr/teks ni tashkil etgan yashil tolali T-212 g‘o‘za tizmalari yaratilganligi hamda Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari hamda O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot institutlari genofondi qimmatli ashyolar bilan boyitilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** G‘o‘zaning rangli tolali namunalaridan foydalangan holda, tola sifati yuqori bo‘lgan seleksion ashyo yaratish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

DNK markerlar asosida rangli tolali g‘o‘za namunalari orasidan genomida tola sifat belgilari bilan bog‘liq allellari mavjud namunalarni tanlash natijasida tezpisharligi 115-117 kun, bitta ko‘sakdagi paxta xom ashyo vazni 6,5-7,5 g, tola chiqimi 37,5-39,1%, mikroneyr ko‘rsatkichi 3,8-4,0, tola uzunligi 32,4-33,3 mm, tolasini pishiq bo‘lgan qo‘ng‘ir tolali T-177 va yashil tolali T-212 g‘o‘za tizmasi yaratilgan. Mazkur tizmalar “G‘o‘za biotexnologiyasi” laboratoriyasining «*Gossypium* L. turkumining dunyoviy bioxilma-xilligi molekulyar filogenetikasini va genetik potensialini o‘rganish, tashqi muhitning biotik va abiotik ta’sirlariga bardoshli donorlar panelini yaratish» dasturida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 2 dekabr 07/21-06/1422-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu tizmalarni molekulyar filogenetikasi o‘rganilib, tezpishar, tola chiqimi va sifati yuqori, sho‘rga bardoshli donorlar paneli yaratish imkonini bergan;

qo‘ng‘ir tolali T-177 va yashil tolali T-212 g‘o‘za tizmalari Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining G‘o‘za kolleksiyasiga hamda O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot institutining Milliy genbankiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 2-dekabr 07/21-06/1422-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishidagi fundamental va amaliy loyihalarda boshlang‘ich ashyo sifatida foydalanish imkonini bergan;

T-177 va T-212 tizmalari Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining ishlab chiqarish dala maydonida 1,5 gektar maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 2 dekabr 07/21-06/1422-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, T-177 tizmasi bo'yicha 38,0 s/ga, T-212 tizmasi bo'yicha 36,5 s/ga hosildorlikka erishilgan va qo'ng'ir va yashil tolali T-177 va T-212 g'o'za tizmalaridan 1,44 tonna yuqori sifatli original urug'lik ashyo tayyorlanib, davlat nav sinovi va yangi navlarning dastlabki urug' ko'paytirish ko'chatzorini yuqori sifatli original urug'lik ashyolar bilan ta'minlash imkonini bergan

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 1 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shular jumlasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, aprobatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**G'o'zada tola rangi va sifati bo'yicha tadqiqotlar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida xorijiy davlatlar va Respublikamiz olimlari tomonidan rangli tolali g'o'zalarning tavsifi va g'o'zada olib borilgan seleksion-genetik hamda molekulyar tadqiqotlari va xulosalarining tahlillari keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tkazish sharoiti, obyektlari va uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar olib borilgan joy va uning sharoiti, ota-ona shakllari sifatida foydalanilgan g'o'za nav va tizmalari va ularning qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha tavsifi, tadqiqot o'tkazish uslubi, tajribalarda olib borilgan kuzatuvlar, tahlillar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot natijalari va ularning tahlili**" deb nomlangan uchinchi bobida boshlang'ich ashyolarning laboratoriya sharoitida sho'rga va *Fusarium oxysporum f. vasinfectum* zamburug'iga bardoshlilik, rangli tolali g'o'za namunalarini duragaylash asosida olingan F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay o'simliklarida morfobiologik va asosiy qimmatli xo'jalik belgilarining shakllanishi, o'zgaruvchanligi, irsiylanishi va duragay o'simliklarining vertitsellyoz viltiga bardoshlilikini baholash bo'yicha olingan natijalar tahlil qilingan.

**“Boshlang‘ich ashyolarning sho‘rga bardoshligini laboratoriya sharoitida baholash”** deb nomlangan 3-bobning birinchi qismida tadqiqotda ishtirok etuvchi boshlang‘ich ashyolarning turli konsentratsiyadagi (50 mM, 100 mM, 150 mM, 200 mM) sho‘rlangan eritmalarda urug‘larning unib chiqishi paytidagi ko‘rsatkichlari baholandi.



**1-rasm. *G.hirsutum* L turiga mansub rangli tolali va oq tolali g‘o‘za nav va namunalarining tuproq sho‘rlanishiga bardoshligi (foizda).**



a-rasm

b-rasm


d-rasm

**2-rasm. Rangli tolali g‘o‘za namunalarining turli konsentratsiyadagi tuzli eritmalardagi bardoshligi.**

Tadqiqot natijasida olingan ma‘lumotlar tahlil qilish asosida oq tolali navlardan Guliston (40%), C-5706 (43,3%), C-5707 (50%) navlari hamda rangli tolali namunalardan esa 4099 (och jigarrang), 4092 (och jigarrang), 4017 (jigarrang), 4068 (yashil) namunalari tuzga bardoshligi aniqlandi (1 va 2 rasmlarga qarang). Bardoshli bo‘lgan 4099 (och jigarrang) (53,3%), 4092 (och jigarrang) (53,3%), 4017 (jigarrang) (40%), 4068 (yashil) (40%) namunalari boshlang‘ich ashyo sifatida tadqiqotda foydalanildi.

**“Boshlang‘ich ashyolarning *Fusarium oxysporum* f. *vasinfectum* zamburug‘iga bardoshligini laboratoriya sharoitida baholash”** deb nomlangan

3-bobning ikkinchi qismida boshlang'ich ashyolarning *Fusarium oxysporum f. vasinfectum* zamburug'iga bardoshlilikini laboratoriya sharoitida urug'larni zamburug' suspenziyasi bilan sun'iy zararlantirish orqali baholandi va bardoshli bo'lgan rangli tolali g'o'za namunalari orasida 4083 (qo'ng'ir) (2,1 ball), 4028 (qo'ng'ir) (2,27 ball), 4099 (och jigarrang) (2,23 ball) namunalari seleksiya ishlarida boshlang'ich ashyo sifatida foydalanildi (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Boshlang'ich ashyolarning *Fusarium oxysporum f. vasinfectum* zamburug'iga bardoshlilikini laboratoriya sharoitida baholash (ball)**

“Ota-ona shakllari va F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> avlod duragaylarida morfo-biologik va qimmatli xo‘jalik belgilarning shakllanishi va irsiylanishi” deb nomlangan 3-bobning uchinchi qismida duragay kombinatsiyalarning morfo-biologik va qimmatli xo‘jalik belgilarining ko‘rsatkichlari keltirilgan. Bunga ko‘ra, tadqiqotlarimizda ota – ona shakllarida va duragay kombinatsiyalarda tezpisharlik belgisining shakllanishi va irsiylanishi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, otalik va onalik shakllariga nisbatan F<sub>1</sub> duragay kombinatsiyalarimiz orasida F<sub>1</sub>C-6577x4017 eng tezpishar bo‘lib, o‘suv davri davomiyligi 114,33 kun bo‘lgan bo‘lsa, eng kechpishar F<sub>1</sub>C-6577x4068 duragay kombinatsiyasi bo‘lib, ko‘rsatkich 118,68 kunga teng bo‘ldi. Qolgan tizmalarda tezpisharlik 115-117 kun oraliq‘ida shakllandi. F<sub>2</sub> avlod duragaylarida tezpisharlik belgisi bo‘yicha yuqori darajada ajralish kuzatilib, eng yaxshi natija otalik va onalik shakllariga nisbatan F<sub>2</sub>C-6570x4017 (114,75 kun); F<sub>2</sub>C-6570x4083 (115,00 kun); F<sub>2</sub> C-6577x4017 (115,15 kun) duragay kombinatsiyalarida kuzatildi va F<sub>2</sub>C-6570x4068 (119,10 kun); F<sub>2</sub> C-6577x4068-118,48 duragay kombinatsiyalarida ota-ona shakllariga nisbatan 2-4 kungacha kechpisharlik kuzatildi (1-jadval).

**Ota-ona shakllari va F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay kombinatsiyalarining qimmatli xo‘jalik belgilari ko‘rsatkichlari**

T/r	Ota-ona shakllari va F <sub>1</sub> -F <sub>2</sub> duragay kombinatsiyalari nomi.	Tezpusharlik, kun	Bir dona ko‘sakdagi paxta xom ashyosining vazni, g.	Tolaning shtapel uzunligi, mm	Tola chiqimi, %	Tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi.
1	4083 (jigarrang)	114,93±0,71	5,9±1,1	27,8±0,35	35,5±0,48	3,9±0,48
2	4099 (och jigarrang)	116,19±0,56	5,0±1,8	28,2±0,74	34,8±0,55	4,0±0,36
3	4017 (jigarrang)	117,00±0,52	5,1±1,0	30,5±0,33	37,0±0,74	3,8±0,51
4	4092 (och jigarrang)	116,39±0,56	6,6±1,1	31,2±0,29	35,6±0,83	3,9±0,63
5	4068 (yashil)	119,65±0,6	6,5±3,0	34,2±0,27	34,6±0,51	4,2±0,45
6	C-6580 (oq)	114,68±0,66	5,0±1,1	32,5±0,71	38,2±0,43	4,0±0,36
7	C-6570 (oq)	114,79±0,73	5,2±0,9	32,4±0,52	37,4±0,48	4,1±0,33
8	C-6577 (oq)	114,5±0,62	6,2±1,0	31,1±0,39	36,6±0,37	4,1±0,51
9	F <sub>1</sub> C-6570x4083	115,44±0,62	5,5±1,6	30,0±0,24	33,9±0,39	3,9±0,36
10	F <sub>2</sub> C-6570x4083	115,00±0,65	5,7±1,3	32,2±0,30	37,5±0,90	3,9±0,31
11	F <sub>1</sub> C-6570x4017	114,59±0,75	5,7±0,8	30,3±0,34	35,3±0,62	4,0±0,64
12	F <sub>2</sub> C-6570x4017	114,75±0,70	5,7±1,0	33,8±0,38	35,3±0,60	3,9±0,65
13	F <sub>1</sub> C-6570x4099	115,00±0,91	5,8±2,1	30,2±0,26	36,0±0,50	4,0±0,41
14	F <sub>2</sub> C-6570x4099	116,00±1,00	6,0±2,3	34,1±0,34	36,7±0,80	4,1±0,80
15	F <sub>1</sub> C-6570x4092	115,65±1,06	5,0±1,6	30,7±0,24	37,8±0,56	4,1±0,32
16	F <sub>2</sub> C-6570x4092	117,00±1,04	6,2±1,6	35,7±0,60	37,5±1,00	4,2±0,53
17	F <sub>1</sub> C-6570x4068	119,14±0,9	6,1±0,7	29,2±0,34	34,7±0,54	4,0±1,01
18	F <sub>2</sub> C-6570x4068	119,10±1,06	6,2±0,9	32,5±0,38	36,0±0,50	4,1±1,38
19	F <sub>1</sub> C-6577x4083	116,31±0,73	6,4±0,8	29,8±0,35	34,7±0,55	3,9±1,00
20	F <sub>2</sub> C-6577x4083	116,30±0,90	6,5±1,2	30,4±0,50	36,1±1,05	4,1±1,41
21	F <sub>1</sub> C-6577x4017	114,33±1,09	5,8±0,7	30,6±0,49	36,2±0,38	3,8±0,32
22	F <sub>2</sub> C-6577x4017	115,15±1,07	6,2±0,7	32,6±0,45	36,5±1,82	3,8±0,45
23	F <sub>1</sub> C-6577x4099	115,48±0,99	5,8±0,7	32,0±0,76	37,4±0,63	4,1±0,45
24	F <sub>2</sub> C-6577x4099	116,50±0,73	5,7±0,9	34,1±0,70	37,5±0,90	4,0±0,58
25	F <sub>1</sub> C-6577x4092	115,24±0,81	5,5±0,7	30,6±0,44	36,3±0,47	3,9±0,41
26	F <sub>2</sub> C-6577x4092	115,20±0,72	6,2±1,1	33,7±0,54	37,5±0,83	3,8±0,35
27	F <sub>1</sub> C-6577x4068	118,68±1,33	6,0±0,8	30,2±0,38	36,1±0,32	4,2±0,63
28	F <sub>2</sub> C-6577x4068	118,48±1,20	6,5±0,6	34,3±0,74	35,3±0,77	4,1±0,44
29	F <sub>1</sub> C-6580x4017	116,14±0,45	5,8±0,9	30,8±0,30	35,4±0,62	4,1±0,46
30	F <sub>2</sub> C-6580x4017	116,40±0,65	6,0±0,52	33,1±0,63	35,4±0,62	4,1±1,10
31	F <sub>1</sub> C-6580x4083	115,38±0,9	5,8±0,8	33,0±0,23	35,4±0,39	3,9±0,39
32	F <sub>2</sub> C-6580x4083	115,50±0,9	5,7±1,0	32,2±0,41	37,4±0,90	3,9±0,74
33	F <sub>1</sub> C-6580x4092	115,13±0,69	5,5±0,9	29,7±0,31	35,7±0,68	3,9±0,43
34	F <sub>2</sub> C-6580x4092	117,40±0,73	5,5±1,3	34,0±0,45	35,7±0,68	3,9±0,85
35	F <sub>1</sub> C-6580x4099	116,17±1,0	6,0±0,6	30,4±0,24	36,0±0,54	4,0±0,32
36	F <sub>2</sub> C-6580x4099	116,70±1,05	6,0±0,81	33,7±0,28	36,0±0,65	3,9±0,70
37	F <sub>1</sub> C-6580x4068	119,4±0,96	5,7±2,0	32,2±0,46	35,0±0,80	3,9±1,01
38	F <sub>2</sub> C-6580x4068	118,40±0,85	7,2±1,8	34,2±0,60	36,0±0,53	4,0±1,01

Tadqiqotlarda tolaning yuqori o‘rtacha shtapel uzunligi belgisi onalik shakli sifatida olingan oq tolali navlarda 32,4-34,23 mm oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, otalik sifatida olingan rangli tolali tizmalarda 27,83-31,17 mm oralig‘ida bo‘ldi. Duragay kombinatsiyalar orasida esa, F<sub>1</sub>C-6580x4083 duragay kombinatsiyalarida eng yuqori ko‘rsatkich – 33,00 mm kuzatildi. Eng past ko‘rsatkich esa, F<sub>1</sub>C-6570x4068

duragay kombinatsiyasida 29,2 mm ni tashkil etdi.  $F_2$  da  $F_1$  avlod duragaylariga nisbatan tolaning shtapel uzunligi belgisi bo'yicha yuqori darajada ajralish kuzatildi. Bunga ko'ra, duragay kombinatsiyalar orasida  $F_2$  C-6570x4092 (35,7 mm);  $F_2$  C-6577x4068 (34,3 mm);  $F_2$ C-6580x4068 (34,2 mm) ko'rsatkich bilan boshqa duragay kombinatsiyalarga nisbatan ustunlikni namoyon etgan bo'lsa eng past natijani  $F_2$ C-6577x4083 (30,35 mm) duragay o'simliklarida qayd etildi. Olingan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, rangli tolali g'ozalarda tolaning rangi yorqinlashishi tolaning sifati bilan bog'liq holatda bo'lib, tolaning uzunligi, chiqimi kabi belgilarining oshishiga sabab bo'ldi. Rangli tolali va oq tolali nav va namunalar hamda ularni duragaylash natijasida olingan  $F_1$  avlod duragaylarida tola chiqimi belgisi tahlil qilindi. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra,  $F_1$  duragay kombinatsiyalari orasida tola chiqimi belgisi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 37,8 % ni  $F_1$ C-6570x4092 duragaylarida va 37,4 % ni  $F_1$ C-6577x4099 duragaylarida kuzatilib ota-ona shakllariga nisbatan ustunlikni namoyon etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich 33,9% ni  $F_1$ C-6570x4083, 34,7% ni  $F_1$ C-6570x4068 va 34,7% ni  $F_1$ C-6577x4083 duragay kombinatsiyalarida kuzatildi, qolgan  $F_1$  duragaylari belgi bo'yicha oraliq holatda bo'ldi. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra,  $F_2$  avlod duragay kombinatsiyalari tola chiqimi belgisi bo'yicha tahlil qilinganda, ota-ona shakllariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich (37,5%)  $F_2$ C-6570x4083,  $F_2$ C-6577x4099,  $F_2$ C-6577x4092 va  $F_2$ C-6570x4092 duragaylarida (37,4%) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich  $F_2$ C-6570x4017 hamda  $F_2$ C-6577x4068 duragay kombinatsiyalarida 35,3% ni tashkil etdi. Qolgan duragay kombinatsiyalar esa belgi ko'rsatkichlari bo'yicha oraliq holatda irsiylandi.

Ota-ona shakllari va  $F_1$ - $F_2$  avlod duragaylari tolaning mikroneyr ko'rsatkichi bo'yicha tahlil qilindi. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra,  $F_1$  duragalarida ota-ona shakllariga nisbatan geterozigota holatda bo'lgan o'simliklar tanlab olindi. Bunga ko'ra, eng yuqori 3,8 mikroneyr ko'rsatkichiga ega bo'lgan  $F_2$ C-6577x4017 duragay kombinatsiyasi ajratib olindi. Qolgan duragay kombinatsiyalarda ham 3,8-4,2 oralig'ida farq kuzatildi va bu o'rta tolali g'ozalar turlariga mos mezon hisoblanadi.  $F_2$  avlod duragaylarini mikroneyr ko'rsatkichi tahlil qilinganda,  $F_1$  duragaylarga nisbatan deyarli farq kuzatilmadi va belgi bo'yicha kuchsiz ajralish namoyon bo'ldi.

Mazkur bobning to'rtinchi **“Rangli tolali g'ozalar namunalarini qimmatli xo'jalik belgilarini baholash va DNK-markerlari asosida genotiplash asosida analitik seleksiya usulidan foydalanib seleksion ashyolarni tanlash”** qismida DNK markerlari asosida qo'ng'ir tolali g'ozaning T-177 va yashil tolali g'ozaning T -212 tizmalari tanlab olingan.

Tadqiqotda tezpisharlik, tola sifati, tola pishiqligi, viltga va sho'rga bardoshlilik belgilariga assotsiyalashgan 128 ta SSR DNK markerlaridan foydalanildi, bu markerlardan 24 tasi polimorf markerligi aniqlandi. Shuningdek, QTL allellarining transferini seleksion jarayonlarda nazorat qilish maqsadida, polimorf bo'lgan, muhim tola belgilariga, tezpisharlikka, viltga bardoshliliigi bo'yicha genetik bog'langan 7 ta DNK markerlarini monitoring vositasi sifatida tanlab olindi (2-jadval).

**PZR tahliliga asoslangan seleksion namunalarni molekulyar tahlil qilish uchun mo'ljallangan DNK markerlari paneli**


№	DNK marker nomi	Xususiyati	Forward	Reverse
			Nukleotid ketma-ketligi	
1	BNL3255	Tola sifati	GACAGTCAAACAGAACAGATATGC	TTACACGACTTGTTCACG
2	BNL1122	Tola sifati	TCGATAACGGCTATAGTAATCTCTC	CAACAAATAAGCAGCCAAGAAA
3	BNL1604	Tola sifati	AGAGGGAGTAAAGATTTGGGG	TCCAGTTCTTTTTGCCTTGG
4	SOC1_2	Tezpusharlik	AGAAAATGCAGCAAGCAGGC	ACCGCTCTATGGTTTTGCTCA
5	BNL0834	FOV ga bardoshli	TCGAGATTCATGGCTCTCTCT	TGGCAAAGTGGACATACCA
6	CGR-5866	Tola sifati	GCTTAGGTTGTCATCCTTATTCG	CCCTTTGTTCAATTTCTCGTG
7	NAU-2277	Tola sifati	GAAGTAGCCACATGATGCAC	TTGTTGAGGCATTAGTTTGC

Muhim tola belgilariga, tezpusharlikka va viltga bardoshliligi bo'yicha genetik bog'langan DNK markerlari bilan PZR skrining ishlarini olib borish maqsadida, dala tajribalarida yuqori natijalarni ko'rsatgan rangli tolali g'o'zaning 48 ta namunasi yosh barglaridan STAB usulida genom DNK si ajratib olindi. Molekulyar tahlil jarayonini osonlashtirish uchun namunalar raqamlandi (3-jadval).

**Rangli tolali g'o'za namunalarining elektroforegrammadagi joylashuv ketma-ketligi**


№	Rangli tolali g'o'za namunalari	Elektroforegrammadagi joylashuvi
2	Turkiya braun (to'q jigarrang)	1-3
3	Turkiya braun (qo'ngi'r)	4-6
4	07223. Fibre Vente (och jigarrang)	7-8
5	Turkiya braun (qo'ngi'r)	9-11
6	101105 (to'q jigarrang)	12-16
